



Raqs LAMI



2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

BIZ TENGMIZ — BIR SAFDAMIZ!

Inson bu dunyoga, eng avvalo, baxtli yashash uchun keladi. Biroq, barcha qatori imkoniyatlarga ega bo'lmisada o'z ezgu maqsadlarini dilga jo qilib, ularning ro'yobi uchun kurashish, bor kuch va irodasi, tafakkurini ana shu maqsad yo'lida safarbar etish, kuchli ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usi bilan yashash, yaratgan ato etgan tafakkurni, botiniy kuch-qudratini ana shu ezgu yo'lida sarflab, diyorimizning gullab-yashnashi, yanada taraqqiy topishi yo'lida sidqidildan hissa qo'shib kelayotgan insonlar o'ramizda ko'plab topiladi.

E'tiborlisi, mamlakatimizda imkoniyati cheklangan shaxslarga ko'maklashish, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, imkon darajasida mehnatga jalb etish, hayotimizning barcha jabhalarida ishtirok etishlariga erishish hamda haq-huquqlarini himoya qilish borasida doimiy g'amxo'rlik ko'rsatib kelinmoqda.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, hayot sifatini yaxshilash tizimini takomillashtirish, ta'lim olish va ishga joylashish hamda hayotda o'z o'rnilarini topishga har tomonlama ko'maklashish choralarini ko'rilmogda.

Ma'lumki, “3-dekabr — Xalqaro nogironlar kuni” bu shukuhli sananing har gal mamlakatimizda keng nishonlanadigan qutlug' bayram, xalqimiz hayotidagi muhim va shonli sana bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun arafasida nishonlanishida ham ramziy uyg'unlik mavjud.

Negaki, Bosh Qomusimizda, eng avvalo, inson huquqlari, uning haqqoniy manfaatlarini, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari kafolatlanadi. Xususan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar va yangilanishlar zahirida ana shu umuminsoniy tamoyillar mujassamdir.

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) SH.Xudoynazarova rahbarligida olib bo-

rilayotgan “Eshitishida va so'zlashuvda nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun raqs harakatlarining tizimli innovatsion majmuasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda akademiya hamkorlikda “Inklyuziv raqs va cheklovsiz ijod” shiori ostida “Biz tengmiz — bir safdamiz” mavzusida ilmiy-ijodiy tadbir o'tkazildi.

Loyiha doirasida, O'zbekiston Karlar jamiyati va uning hududlardagi filiallari bilan doimiy aloqa o'rnatilgan. Jamiyatga a'zo 27 mingdan ortiq kar va zaif eshituvchilar uchun mimika va jest teatri tashkil etilgan. Bugungi kunda teatr studiyasida ashula va raqs bo'yicha dars olganlarning soni 300 nafardan oshdi. Bundan tashqari, Qozog'iston Respublikasi Olma ota shahridagi ikkita inklyuziv markazlar bilan loyiha doirasida hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan.

Tadbirni imkoniyati cheklangan bolajonlarning tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasi boshlab berdi. Badiiy qismini esa O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi O'zbekiston Karlar jamiyati tasarrufidagi Kar-soqovlar madaniyat markazi qoshida tashkil etilgan “Mimika va jest” teatri ishtirokchilari ijrosida boshlanib, undan so'ng Toshkent viloyati Ohangaron shahar 7-son Alohide ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari, “Ko'zmunchiq” raqs dastasi ishtirokchilari, loyiha ishtirokchilari Iroda O'rozova hamda Xojimurod Botiraliyev, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi talabalari Yelezaveta Trashkova hamda Dano Talxatovalarning ijro etgan raqs

va qo'shiqlari tadbirga tashrif buyurgan mehmonlarni to'lqinlantirib yubordi. Ayniqsa, bolajonlarni elimiz ardog'idagi san'atkorlar O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Said Rametova, Lola Elto'yeva, Dilnoza Kubayeva va “Nihol” davlat mukofoti sovrindori Sharof Muqimovlarning ishtiroki yanada zavqlantirdi.

Tadbirni yakunida Innovatsion rivojlanish agentligi direktori Asror Norov hamda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori Shuxrat Toxtasimov bolajonlar uchun bayram tabriklari hamda tadbir ishtirokchilar va tashkilotchilariga minnatdorchiliklarini bildirdilar.

Hamidjon Ro'ziboyev,
“Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash” bo'limi muhandisi

YILLAR SARHISOBI — SAN'AT, FIDOYILIK VA USTOZLIK YO'LI

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida akademiya rektori, tajribali pedagog, professor, fidoyi rahbar — Toxtasimov Shuxrat Maxmutovichning 65 yillik yubileyi munosabati bilan “San'at mening hayotim” nomli ijodiy kecha bo'lib o'tdi.

Tadbirida milliy san'at va ilmiy jamoatchilikning nufuzli vakillari, jumladan, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, “Turon” Fanlar akademiyasi akademigi Hamid Qahramon, O'zbekiston xalq artistlari Bernora Qoriyova va Qodir Mo'minov, shuningdek, akademiya professor-o'qituvchilari hamda talabalar ishtirok etdilar.

Ijodiy kechada professor Shuhrat

Toxtasimovning 45 yillik samarali mehnat faoliyati, yuksak mas'uliyat va yorqin ijod namunasi bilan o'zbek xoreografiya san'atiga, 2012-yildan buyon O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasiga rahbarlik qilib, yosh avlodni ona yurtga muhabbat, istiqloq g'oyalarga sadoqat va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qo'shgan hissasi e'tirof etildi.

Tadbinning yana bir quvonchli va faxrli lahzalaridan biri — Shuhrat Toxtasimovning turkiy tilli xalqlar tarixi, milliy qadriyatlarini va madaniyatini targ'ib etishdagi xizmatlari uchun Qozog'iston Respublikasining «Дуние таланты» (“Dunyo talantlari”) uyushmasi tomonidan “Ahmad Yassaviy” medali bilan taqdirlangani bo'ldi.



KONSTITUTSIYA — ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgan sanadan e'tiboran dunyo sahnida yangi, suveren davlat tashkil topgan bo'lsa, Konstitutsiya qabul qilingan kuni davlatimiz yangidan tug'ildi, mustaqilligimizga mustahkam huquqiy poydevor qo'yildi.

Mamlakatimizni kelgusi besh yilda rivojlantirishga qaratilgan “Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi” va unda belgilangan maqsadlarni amalga oshirish nafaqat qonunlarimizni mustahkamlashni, shu bilan birga, Bosh qomusimizda ham inson qadriini yuksaltirishga qaratilgan normalarni yanada takomillashtirib, bugungi zamon talablariga moslashtirishni taqozo etmoqda. Shu qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida” 2024-yil 17-oktyabrdagi F-53-son Farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbeki-

ston davlat xoreografiya akademiyasida, joriy yilning 24-noyabr kuni “Konstitutsiya — erkin va farovon hayot garovi” mavzusida talabalar o'rtasida ilmiy maqolalar tanlovi o'tkazildi. Ushbu tanlovga talabalar tomondan ko'plab maqolalar kelib tushdi. Maqolalarning barchasi hakamlar hay'ati tomonidan shaffoflik va oshkoralik bilan o'rganilib baholandi va g'olib bo'lgan talabalar akademiya tomonidan sertifikat va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Mana shu kabi tanlovlarning asosiy maqsadi — talaba yoshlar orasida milliy qomusimiz bo'lgan Konstitutsiyaning o'rganish, so'nggi qabul qilinayotgan qonunlarni bilish, har bir inson o'zining kelajagiga ta'sir etuvchi qonunlarga befarq bo'lib yashamaslik kerak ekanligini targ'ib etishdir.

Begzod Turmamatov,
“San'atshunoslik” ta'lim yo'nalishi
3-kurs talabasi



RAQS SAN'ATIDA PORLAGAN – YULDUZ

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professional raqqosa, baletmeyster Yulduz Ismatova 1944-yil Toshkentda tug'ilgan. O'zbek xoreografiya bilim yurtida o'qib yurgan davrida, 1963-yili Muqimiy nomli musiqali drama va komediya teatrida raqqosa bo'lib faoliyatini boshlagan. 1963-yildan 1988-yilgacha barcha spektakllarda yakka raqslarni ijro etgan. Ayniqsa, u "Nurxon", "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Paranji sirlari", "Sevgi xiyoboni", "Qalam qoshligim" spektakllarida ijro etgan raqslari konsert repertuariga kirgan "Munojot", "Tanovar", "Zavqim kelur", "Orazbon lazgi", "Gulnor", "Sayyora", "Raqqosa", "Gulchi qiz", "Raqqiblar" arabcha, hindcha, afg'oncha raqslari bilan tomoshabinlarni maftun etgan. Yulduz Ismatova 1976-yilda ishlab chiqarishdan ajralmagan holda Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutining aktyorlik fakultetini tugatdi. Bu yillar davomida spektakllarda aktrisa sifatida rollar ham ijro etdi. "Qaynona" dagi Ofat, "Yolg'onchi darkor" dagi Pitsakitsa, "Xotinimning eri" dagi Zarifa, "Nurxon" dagi Qumri, "Yarim tundagi o'g'rilik" dagi Sitsa, "Hijron" dagi Charlton, "Gulbahor qani" dagi Xadicha,

"Toshbolta oshiq" dagi Saltanat, "Jonim fido" dagi Valya, "Mening jannatim" dagi Nodira, "Ona qizim" dagi Go'zal, "Qiz bu loq" dagi Ohu, "Oddiy mo'jiza" dagi Malika va boshqa obrazlar shular jumlasidandir. U baletmeyster sifatida ham ijod qilib, "Layli va Majnun", "Olifto", "Mangulik", "Gulsara", "Tohir va Zuhra", "Paranji sirlari", "Nurxon" spektakllarida raqslar sahnalashtirdi va qator konsert dasturlarida yangi raqslar, yallalar, maqomlar yaratdi. "Dilafruzga to'rt oshiq", "Oltin davrim", "Olifto", "Yulduzlar jamoli" kabi spektakllarni sahnalashtiruvchi rejissyori ham bo'lgan.

1988-yilda O'zbekiston Telera-diokompaniyasida "Tanovar" milliy raqs ansamblini tashkil qilib, O'zbekiston Respublikasida birinchi bor milliy raqs teatrida (ya'ni milliy baletini) yaratdi. San'atkor spektakllar bilan bir qatorda konsert dasturlarini ham sahnalashtirdi. 1988—1989 yillarda "Munojot" (Yakka raqs), "Tanovar", "Parvoz ayladi", "Xorazmcha", "Doira chorlaydi", "Soqinomai savti kalon" (maqom), "Ey sarvi ravon", "O'xshar", "Suv parilari", "Sumbula", "Adolat tanovari" (ommaviy raqslar), "Afg'on", "Anor-anori" (eroncha), "Raqqosa keldi", "Arab", "Indira Gandiga bag'ishlov" kabi yakka raqslarni yaratgan.

1990—1991 yillarda "Mavrigi", "Shodiyona", "Tanovar-2", "Keltursa yuz balo" (maqom), "Bog'lar sog'indilar", "Na bo'ldi", "O'ynang qizlar", "Ho-ho-yalli" ommaviy raqslari va "Tong shu'las", "Ey Hamdam" "Bobur" (telespektaklida arabcha raqs), "Gulchi qizi", "Dala qaldirg'ochi", "Sarvi gul", "Qarab qo'y", "Afg'on qizlari", "Raqqiblar", "Buxorocha raqs", "Uyg'urcha nim-parda", "Ayrilmasin" yakka va uch-to'rt kishilik raqslarni, 1993-yilda "Choyxona", "Hova-hova" (pokistoncha), "Dutorimni chertaman" (uyg'urcha), "Sumbul soching", "Burama ko'ylak" (ommaviy raqs), "Sarvinov" kabi yakka raqslarni sahnalashtirdi. Mirzo Ulug'bekning 600 yillik yubileyiga bag'ishlangan Samarqand shahridagi Registon maydonida teatrlashgan konsertda "Koinot", "Beshik", "Qurbon o'lam", "Yulduzlar", "Abadiyat" raqsalarini sahnaga qo'ygan. Xo'ja Ahror Valiyning 590 yillik yubileyining bosh baletmeysteri bo'ldi.

Yulduz Ismatova 1995-yilda "Mukarrama Turg'unboyeva" nomidagi mukofot bilan, 1998-yilda esa «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlangan.

Sevinch Quvvatova,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
4-kurs talabasi



RAQS SEHRI VA GO'ZALLIK TIMSOLI – RUSHANA SULTONOVA



O'zbekiston san'ati osmonida o'zining betakror iste'dodi, nafis harakati va yuksak mahorati bilan porlab turgan yulduzlardan biri — Rushana Sultonova. Har bir xalqning yuragida uning san'ati, har bir san'atning yuragida esa o'ziga xos iste'dodlari yashaydi. Raqs san'atida o'z o'rnini, o'z nafasi, o'z uslubi bilan tanilgan Rushana Sultonova nomi

ham alohida ehtirom bilan tilga olinadi. Rushana Sultonova 1965-yil 27-noyabrda Buxoro viloyatining Gazli shahrida tug'ilgan. Otasi energetika sohasida, onasi esa ta'lim sohasida faoliyati yuritgan. Rushana Sultonova yoshligidanoq san'atga mehr qo'ygan.

1979-1984-yillarda Rushana Sultonova Toshkent xoreografiya makta-

bida tahsil olib, raqs sir-asrorlarini o'rgangan. Keyinchalik Toshkent davlat madaniyat institutida o'qishini davom ettirgan. Rushana Sultonova 1987-yili 22 yoshida «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist» unvoniga sazovor bo'lgan. Mahoratli raqqosa hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tahsil olgan va shu vaqt mobaynida

o'zbek raqs an'alarini zamonaviy sahna ko'rinishlari bilan uyg'unlashtira olgan. Rushana Sultonova ijro etgan "Tanovar", "Bahor kelar", "Dilxiroj", "Lazgi" kabi raqslar tomoshabin qalbiga chuqur kirib borgan. U raqs orqali so'zsiz gapiradi, yuraklarga so'zsiz yetadi. Raqqosaning mehnati yuksak e'tirof etilgan: u 1998-yilda "O'zbekiston xalq artisti" unvoniga sazovor bo'lgan. Rushana Sultonova bir yil davomida "Yeti go'zal" ansamblida ijod qilgan. Raqqosa "Sarvinov", "Orazibon lazgisi", "Xorazm raqsining tug'ilishi", "Buxorocha", "Qizbola", "Gulsanam", shuningdek tojikcha, afg'oncha va boshqa ko'plab xalqlar raqsalarining mohir ijrochisi sifatida tanilgan. Yillar o'tib ham, Rushana Sultonova sahnadan, raqsdan, san'atdan uzoqlashmadi. 2022-yilda esa "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Mahoratli raqqosa, mohir pedagog Rushana Sultonova bugun ham yosh raqqosalar uchun ilhom manbaidir. U nafaqat raqqosa — u o'z hayotini san'atga bag'ishlagan, har bir harakati bilan xalqining ruhini tarannum etgan ijodkordir. Rushana Sultonovaning ijod yo'li bizni shunga undaydi: har bir inson o'z ishi, o'z iste'dodi orqali go'zallik yaratishi, qalblarga ilqlik ulashishi mumkin va shu yo'lda aslo to'xtab qolmasligi, doim olg'a intilmog'i kerak.

Zinnura Mirsaidova,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi



XALQ OG‘ZAKI IJODI – O‘ZBEK MAROSIM RAQSLARI

O‘zbek xalqi juda qadim zamonlardan o‘ziga xos milliy mentaliteti va urf-odat, an‘ana marosimlari bilan boshqa xalqlardan ajralib turgan. Biroq, sho‘rolar tuzumi davrida qariyb 70 yil mobaynida xalqimizning nodir madaniy merosi top-taldi, “eskilik sarqiti” deb qaraldi. Qisqasi, qatag‘on ostiga olindi, unutishga majbur qilindi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin qisqa tarixiy

muddat ichida siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida misli ko‘rilmagan natijalarga erishdi. Qadimgi va shu kunlarda xalqaro ahamiyatga

ega bo‘lgan Navro‘z bayramimiz, diniy qadriyatlarimizning qaytadan tiklanishi, yurtimizda yashab, ijod etib, dunyo xalqlari madaniyati ravnaqiga salmoqli hissa qo‘shgan ulug‘ allomalarimizning yodga olinishi, ularning xotirasini abadiylashtirilishi juda quvonarli hol. Shular bilan bir qatorda o‘zbek xalqining qadimiy rasm–rusumlari, udumlari, an‘analar va marosimlarining qayta tiklanganligi, ularning yosh avlodni yetuk har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda xizmat qilayotganligi dillarimizdagi shuurga shuur, g‘ururimizga g‘urur baxsh etmoqda. O‘zbek raqslarining ilk ildizlari albatta marosim va mana shu marosim bilan bog‘liq bo‘lgan turli an‘anaviy tadbirlarga borib taqaladi. Manbalarda keltirilishicha raqslar eramizning IV asrida marosimlardan chiqib, inson faoliyati va ruhiy olamini aks ettiruvchi san‘atning alohida turi sifatida shakllangan va rivojlangan. Arablar va mo‘g‘ullar istilosi davrida san‘atning boshqa turlari singari marosim raqs san‘ati rivojiga ma‘lum darajada zarba berildi. XIV asrning ikkinchi

yarmiga kelib yana qayta jonlana boshlagan. Xususan, Navoiy zamonida Xuroson va Movarounnahrda raqsga katta e‘tibor berila boshlangan, ayniqsa, marosim raqslarining tarkibiy qismi bo‘lmish yakka holdagi va ko‘p raqqosalardan iborat kichik–kichik ansambl shaklidagi guruhlar bilan bir qatorda xalq o‘yinlariga keng yo‘l ochib berildi va rivojlantirildi. O‘zbek marosim raqlari tarixan boy va qadimiydir. O‘zbekiston hududida topilgan tasvirlar va arxeologik topilmalar buning dalilidir. Toshlarga chizilgan xilma-xil ibtidoiy davr sur‘atlari orasida tosh va bronza davriga taalluqli niqob kiygan raqqos hamda bir guruh o‘yinga tushayotgan ayol va erkaklar tasvirlari hozir ham saqlanib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Akademik G.A.Pugachenkova rahbarligidagi ekspeditsiya qatnashchilari topgan bebaho san‘at asarlari orasida eramizdan avvalgi

Raqslar eramizning IV asrida marosimlardan chiqib, inson faoliyati va ruhiy olamini aks ettiruvchi san‘atning alohida turi sifatida shakllangan va rivojlangan.

III asrdan eramizning VIII asrigacha bo‘lgan davrga oid san‘atkorlar haykalchalari bo‘lib, ular ichida o‘yinchilariniki ham uchraydi. Surxondaryo viloyatining qadimgi arxeologik majmualari hisoblangan Dalvarzintepa, Qoratepa, Kampirtepa, Fayoztepa, shuningdek, Shahrisabz, Termiz, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo‘qonda olib borilgan qazilma ishlarda topilgan topilmalar, eramizning V asrlarida raqqosalar shuhrati butun Sharqda keng yoyilganligidan dalolat beradi.

Hozirgi davrga kelib esa marosim raqslarini, umuman olganda O‘zbek xalqining qadimiy urf-odatlarini tiklash milliy madaniyatga aylantirish chora tadbirlari ko‘rilmoqda. Buning misolida o‘tkazib kelinayotgan tadbirlar, festival-lar, konferensiyalar va xalq tomoshalarini aytishimiz mumkin.

Mohichehra Ergasheva,
“San‘atshunoslik”
ta’lim yo‘nalishi
4-kurs talabasi



KINO VA TEATR SAN‘ATI – HAYOT OYNASI

San‘at - inson ruhiyatiga, hayotiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi vositalardan biridir. Kino va teatr san‘ati ham aynan shunday san‘at turlaridan bo‘lib, insonga ma’naviy zavq, o‘zgacha his-tuyg‘u, qalbga go‘zallik bera oladi.

Kino – bu hayotning, jamiyatning harakatdagi tasvirlarda ifodasi.

Teatr – bu hayotni sahnada jonli tarzda ko‘rsatadigan san‘at.

Kino texnika, tasvir, ovoz va montaj ishlari orqali ommaga taqdim etiladi. Teatrda esa tomoshabin voqeani jonli tarzda tomosha qiladi ya’ni barcha bo‘layotgan voqea, hodisalar jonli ko‘rsatiladi. O‘zaro farq qilsa ham har ikkala san‘at bir-biriga chambarchas bog‘liq, har ikkisi ham aktyor, ssenariy va rejissyor muhim rol o‘ynaydi. Faqat ifoda vositalari farqli: teatr jonli so‘z va harakat orqali bo‘lsa, kino tasvir va texnika kuchi orqali.

Nega aynan kino va teatr san‘ati - hayot oynasi? Hayot oynasi — bu ibora ramziy (majoziy) ma’noda ishlatilgan. Bu jamiyat, inson, tabiat va hayotni san‘at orqali aks ettiruvchi timsol. Qisqa qilib aytadigan bo‘lsak, xuddi oyna bizning tashqi qiyofamizni ko‘rsatgani kabi, san‘at ham insonning ichki dunyosini, quvonchi, azobi, iztirobi va orzularini tasvirlaydi va biz hayotning badiiy aksini tushunishimiz mumkin bo‘ladi. Kino va teatr san‘ati esa bizga bamisoli “oyna” vazifasini o‘taydi.

O‘zbek milliy filmlaridan “O‘tgan kunlar” filmi ham tarix va millat uyg‘onishining san‘atdagi ifodasi. “O‘tgan kunlar” — Abdulla Qodiriyning shu nomli romaniga asoslangan o‘zbek milliy kinosining durdonasidir. Filmida XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi Turkiston hayoti, xalqning ijtimoiy holati, milliy o‘zlik va mustaqillik g‘oyalari yoritilgan. Asosiy qahramonlar Otabek va Kumush obrazi orqali muhabbat, sadoqat, vatanparvar-

lik va insoniylik g‘oyalari namoyon bo‘lgan. Otabek timsolida millatparvar, o‘z xalqining baxti uchun kurashuvchi yosh avlod qiyofasi gavdalangan. Kumush esa o‘zining sadoqati, iffati va mehri bilan o‘zbek ayolining ma’naviy qudratini ifodalagan. Film nafaqat sevgi hikoyasi, balki tarixiy saboqdir, balki misli “oyna” vazifasini o‘tagan. U orqali tomoshabin o‘z xalqining o‘tgan hayotini, qadriyatlarini, o‘zligini anglashi mumkin.

O‘zbek milliy spektakllari ichida xalq hayoti va kulgi falsafasini uyg‘unlashtirgan hamda xuddi shunday “oyna” vazifasini o‘tagan spektakllardan biri “Kelinlar qo‘zg‘oloni” spektaklidir. Unda oddiy xalq hayoti, o‘zbek oilalaridagi o‘zaro munosabatlar, inson xarakterlari hazil-mutoyiba orqali yoritilgan. Spektakl orqali tomoshabin o‘z hayotidagi voqealarni tanib oladi, kuladi, o‘ylaydi va xulosa chiqaradi. Bu asarda kulgi — nafaqat ko‘ngil ochish vositasi, balki ijtimoiy tahlil qurolidir. Spektakl orqali jamiyatdagi kamchiliklar yumor orqali ko‘rsatilgan, tomoshabinni fikrlashga chorlaydi.

Xulosa qilib aytilganda san‘at — insonning yuragidan otilgan nurdir. U hayotni bezaydi, insonni tarbiyalaydi, tafakkurni o‘stiradi, jamiyatni uyg‘otadi. Har bir sahna, har bir kadr hayotning o‘zidan olingan lavha bo‘lib, ular orqali inson o‘zini, o‘z tuyg‘ularini va dunyoni qayta kashf etadi. Teatr va kino bu, nurning ikki yo‘nalishi, ikki kuchli manbaidir. Ular orqali biz hayotni yanada chuqurroq his qilamiz va albatta “oyna” da o‘z aksimizni ko‘rib, xulosa qilamiz.

Umidabonu Egamnazarova,
Sevara Agzamova,
“San‘atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabalari



GRUZIN RAQSLARI JOZIBASI

Gruzin raqslarining kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qadimda gruzin xalqlari hayvonlar va qushlarning harakatlariga taqlid qilib raqsga tushishgan. Shu sababli, Gruziya xalq raqslarida ayol raqqosalar harakati — oq qushning nozik parvozini, erkak ijrochilarning harakati esa burgutning shiddatli va

mardona timsolini ifodalaydi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, gruzin raqslari sezilarli darajada o‘zgarib, professional sahna san‘atiga aylana boshladi. Avval yakkaxon va juftlik raqslari ommalashgan bo‘lsa, keyinchalik marosimlarda guruh bo‘lib ijro etiladigan raqslar shakllandi. Bu jarayonda 1885-yilda vokal-cholg‘u ansambliga asos solgan Lado Agniashvili va Aleksin Aleksidzining xizmatlari katta bo‘lgan. Yillar mobaynida boyib borgan raqs an‘analari natijasida 1945-yilda I.Suxishvili va N.Ramishvili tomonidan birinchi Gruziya xalq raqslari davlat ansambli tashkil etilgan. Bu ansambl gruzin raqslarini, xalqning ichki dunyosi, fe‘l-atvori va tarixini aks ettiruvchi yuksak san‘at darajasiga ko‘tardi. Vaqt o‘tishi bilan raqslar mazmuni, libosi va ijro uslubiga ko‘ra turli yo‘nalishlarga bo‘lingan. Ular orasida jangovar xarak-

terdagi erkaklar raqslari, nozik va sokin ayollar raqslari, juftlik raqslari hamda turli marosimlarda ijro etiladigan boshqa ko‘plab raqslar paydo bo‘lgan.

“Kartuli”, “Mtiluri”, “Perxuli”, “Xorumi”, “Xanjiluri”, “Doluri”, “Tseruli”, “Samaya”, “Gandagan”, “Kazbeguri”, “Rachuli” va boshqa raqslar xalq madaniyatining rang-barangligini namoyish etadi.

Kartuli— erkak va ayol o‘rtasidagi ishqiy hurmatni ifodalaydigan raqs bo‘lib, gruzin xalqining kamtarlik, olijanoblik va vazminlikka asoslangan xarakterini aks ettiradi.

Xorumi — harbiy raqs bo‘lib, avval bir necha kishi tomonidan, keyinchalik 30–40 erkak tomonidan ijro etilgan.

Kazbeguri — shimoliy tog‘li hududlarga xos raqs bo‘lib, sovuq iqlim va tog‘ hayotining qat’iyati raqs harakatlarida yorqin ko‘rinadi.

Rachuli — quvnoq raqs bo‘lib, mehnatkash xalqning kundalik hayoti-ga asoslangan harakatlardan iborat.

Gandagan — Adjaraga (Adjariya – Gruzyaning Qora dengiz sohilidagi mintaqqa) xos raqs bo‘lib, unda erkak va ayol o‘rtasidagi yengil, erkin va sho‘x noz-karashmalar tasvirlanadi.

Asrlar davomida shakllangan bu raqslar avloddan avlodga o‘tib, xalqning ma’naviy boyligini ko‘rsatib uni asrab kelmoqda.

Bugungi kunda ham gruzin raqslari faqat milliy meros bo‘lib qolmay, balki dunyo sahnalarida o‘zining jozibasi va san‘ati qiymatini namoyon etmoqda. Ularning o‘ziga xosligi va go‘zalligi tufayli Gruziya raqs san‘ati xalqning milliy faxri, dunyo madaniyatining esa boy va qadrlangan qismiga aylanib ulgurgan.

Dinara Qodirova,
“San‘atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabasi

«O‘Z YO‘LINGDAN CHEKINMA!..»

Mening taqdir suvratimga bitilgan baxtsizliklar qanchalik og‘ir va davomli bo‘lmasin, qalbim tubida hamisha sof garmoniya va musiqa yashaydi. Eng faqirona kulbalarda, g‘uborli oshyonlarda men o‘z qalam chizgilarim, kartinalarimning syujetlarini ko‘raman va yengilmas bir kuch meni shu tomonga chorlayveradi.

Vinsent Van Gog

Jahon tasviriy san‘ati tarixida Vinsent van Gog shaxsiyati va ijodi alohida o‘rin tutadi. Uning hayoti san‘atga sadoqat, iztirob, yolg‘izlik va jamiyat tomonidan tushunilmaslik bilan kechgan bo‘lib, bu holat rassomning badiiy tafakkurida chuqur fojeaviylik kayfiyatini shakllantirdi. Van Gog tirikligida deyarli tan olinmagan, moddiy qashshoqlik va ruhiy xastaliklar bilan kurashgan bo‘lsa-da, bugungi kunda uning asarlari inson ruhiy olamining eng nozik va murakkab qatlamlarini ochib bera olishi bilan yuksak qadrlanadi.

Van Gog hayotidagi fojeaviylik uning bolalik davridan boshlab shakllangan. U jamiyatga moslasha olmaslik, kasbiy izlanishlardagi muvaffaqiyatsizliklar va ruhiy beqarorlik tufayli doimiy iztirobda yashagan. Ayniqsa, Arl davrida ruhiy xastalikning kuchayishi uning rang tanlovi va chiziqlar ekspressiyasida yaqqol namoyon bo‘ladi. “Yulduzli tun”, “Qarg‘alar uchayotgan bug‘doyzor”, “Sariq uy” kabi asarlar rassomning ichki fojeasini badiiy ramzlar orqali ifodalaydi.

Van Gogning eng samarali davri hisoblangan Arl va Sen-Remi yillari uning ijodidagi eng yuksak cho‘qqi va ayni paytda eng og‘ir fojeaviy palladir. Uning ranglar palitrasi quyoshli sariq va yorqin ko‘k ranglar bilan boyigan bo‘lsa-da, bu ranglar ortida hayajon va asabiy taranglik yashiringan edi. Pol Gogen bilan birgalikda

“Janub ustaxonasi”ni yaratish orzusi barbod bo‘lishi, ularning o‘rtasidagi shiddatli nizo va natijada Vinsentning o‘z qulog‘ini kesib tashlashi uning ruhiy holati butunlay izdan chiqqanini ko‘rsatdi. Ruhiy xastaxonada yotgan kezlari u o‘zining eng mashhur asarlarini, jumladan “Yulduzli tun”ni yaratdi. Bu asardagi girdobsimon osmon va notinch chiziqlar rassomning

ichki olamidagi tartibsizlik va koinot bilan bo‘lgan kurashini ifodalaydi. U o‘zining kasallik xurujlari orasidagi qisqa vaqtlarda telbalarcha mehnat qilar, go‘yo o‘lim uning ortidan quvib kelayotganini va hamma narsani chizib ulgurishi kerakligini his qilgandek edi. Bu davrda ijod u uchun ham dori, ham uni jismonan yemiruvchi kuch vazifasini o‘tadi.

U o‘z umri davomida 2000 dan ortiq asar yaratgan bo‘lishiga qaramay, faqatgina bitta asari (“Arlidagi qizil uzumzorlar”) rasman sotilgani haqida ma‘lumotlar bor. Doimiy ravishda ukasi Teoning yordamiga muhtoj bo‘lishi uni ruhan ezib yuborgan edi; u o‘zini yaqinlari uchun og‘ir yuk deb hisoblay boshladi. 1890-yilning iyul oyida Over-syur-Uazda yuz bergan fojia — uning o‘z ko‘ksiga o‘q uzishi (ba‘zi farazlarga ko‘ra, bu tasodifiy baxtsiz hodisa bo‘lishi ham mumkin) bu buyuk va alamlı hayotning mantiqiy, ammo nihoyatda qayg‘uli yakuni bo‘ldi. U o‘lim to‘shagida yotganida ham “G‘am-g‘ussa abadiy davom etadi” degan so‘zlarni aytgan edi. Uning o‘limidan so‘nggina dunyo uning ranglaridagi mo‘jizani, har bir chizig‘idagi falsafani va insoniy dardni anglab yetdi.

Vinsent hayotining ajralmas qismi uning ukasi Teo edi. Ularning o‘rtasidagi munosabat jahon madaniyati tarixidagi eng noyob va ayni paytda eng og‘irliq aloqalardan biridir. Teo akasini nafaqat moliyaviy, balki ma‘naviy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlagan yagona inson edi. Biroq, bu bog‘liqlik Vinsent uchun katta ma‘naviy yukka aylandi. U har safar

Teodan pul olganda, o‘zini akasining rizqini qiyayotgan aybdordek his qilardi va bu aybdorlik hissi uning xatlarida yaqqol ko‘rinardi. “Men sening pullaringni bo‘yoqlarga sarflayapman, evaziga esa hech narsa bera olmayapman,” degan fikr uni doim ta‘qib qilardi. Eng daxshatli fojia shundaki, Vinsentning o‘limidan atigi olti oy o‘tib, Teo ham ruhiy tushkunlik va og‘ir xastalikdan vafot etadi. Ular hatto o‘limda ham ajralmadilar; bugungi kunda ular Over-syur-Uaz qabristonida yonma-yan yotibdi. Bu birodarlik rishtasi Vinsentga yashash uchun kuch bergan bo‘lsa-da,



uning o‘z qobiliyatiga bo‘lgan shubhasi va “tekinox‘rlik” haqidagi o‘ylari uning ruhiy inqirozini yanada chuqurlashtirgan edi. Van Gogning so‘nggi yillari uning san‘atidagi ranglar jangi bilan tavsiflanadi. Uning palitrasidagi sariq rang ko‘pincha baxt ramzi deb talqin qilinsa-da, ko‘plab san‘atshunoslar buni rassomning asab tizimidagi buzilishlar va u iste‘mol qilgan dori vositalarining (masalan, raqamgul damlamasi — digitalis) ta‘siri deb hisoblashadi. U ranglarni haqiqatda qanday bo‘lsa shunday emas, balki o‘zi qanday his qilsa shunday tasvirlagan. Uning mashhur “Qarg‘alar uchgan bug‘doyzor” asari ko‘pincha uning o‘limidan oldingi “vidolashuvi” deb ataladi. Undagi yo‘llarning hech qayerga bormasligi, osmonning quyuq va tahdidli ko‘kligi hamda qarg‘alarning qora soyalari rassomning oxirgi chorasizligini ko‘rsatadi. U o‘z asarlarida tabiatni “hayqirishga” majbur qildi. Van Gog o‘zining butun dardi, muhabbat-

ga bo‘lgan ehtiyoji va dunyodagi adolatsizliklarga nisbatan isyonini matoga ko‘chirdi. Uning fojeasi shundaki, u ke-lajak avlodlar uchun ranglar inqilobini qilib ketdi, lekin o‘zi o‘sha ranglar ichida yonib, kulga aylandi.

Van Gog hayoti va ijodidagi fojeaviylik uning shaxsiy taqdiridan ajralmas holda shakllangan murakkab badiiy hodisadir. Rassomning ruhiy iztiroblari, yolg‘izligi va jamiyat bilan kelishmovchiligi uning san‘atida kuchli ekspressiv ifodaga sabab bo‘lgan. Van Gog fojeaviylikni bevosita tasvirlashdan ko‘ra, uni ranglar, chiziqlar va harakat orqali ifodalagan, bu esa uning asarlarini chuqur psixologik mazmunga ega bo‘lishiga olib kelgan.

Diana Erjanova,

“San‘atshunoslik” ta‘lim yo‘nalishi
3-kurs talabasi

ONA, SIZ...

O‘qituvchimiz darsda bir hikoya o‘qib berdi. Uslubi biroz boshqacha edi. Keyin bilsak u koreys tilidan o‘qituvchimiz To‘maris A‘zamning tarjiması ekan...

Har qanday holat — o‘tkinchidir. Baxtli onlar ham, dardli vaqtlar ham. Inson baxtli lahzalar og‘ushida yashar ekan, hech bu baxtdan bebahra qolishni o‘ylamas ekan. To‘g‘ri-da, inson baxtli bo‘lib tug‘ilmaydi, baxtga baxtsiz kunlardan kechib o‘tiladi, yoki inson tug‘ilganida kimgadir baxt, hayotiga baxt nurini sochguvchi bo‘lib tug‘ilasiz.

Men bir hikoya o‘qidim. Ona onalik baxtini his etguncha undan o‘tkinchi hislar yiroqlashar ekan. Ona va bola o‘rtasidagi mehr hissi ilohiy quvvat edi. Bolani voyaga yetkazar chog‘ida unga mana shu ilohiy quvvat dalda bo‘lib, uni qahraton sovuqda qolgan chog‘ida ham ichiga issiqlik baxshida etar ekan. Eh..., farzand bu narsalarni, bu tuyg‘ularni qayerdan bilsin. Chunki u

hali ona yoki ota bo‘lgan emas edi. Ayti-shadi-ku, ota-onani qadrini, o‘zing ham ota-ona bo‘lganingda tushunib yetasan, deb.

Voyaga yetgan farzandga onalik mehri kamlik qilayotgandek tuyila boshlar ekan, u o‘ziga umr yo‘ldoshini topganida esa, bu kamlik qilayotgan tuyg‘u sevgi bilan to‘lib qolgandek bo‘lar ekan. O‘z farzandi kamolini ko‘rgan har bir onaning dili yayraydi albatta. O‘g‘lini farzandli bo‘lishini, haqiqiy oilaga aylanishi, oila tashvishlari, farzand tarbiyasi va hokazolar. Bu narsalardan ona beixtiyor shod, ko‘ngli to‘q edi. Ammo yoshi o‘tgan sari ota-onalar farzandlaridan e‘tibor kutib qolar ekan. Ana o‘shanda inson o‘tkinchi hayotda yashayotganini bir on bo‘lsa-da o‘ylab qoladi. Bu o‘qigan hikoyam, hayot taqdiri ana shunday tus olishni boshlagan ona haqida edi.

Begzod Turmamatov,

“San‘atshunoslik” ta‘lim yo‘nalishi
3-kurs talabasi

TAHRIR HAY‘ATI

Nozim Qosimov

Hulkar Hamroyeva

Matluba Murodova

Po‘lat Tashkenbayev

Dildora Qosimova

Shahzoda Xudoynazarova

Gulasal Usmonova

BOSH MUHARRIR:

Shuxrat TOXTASINOV

BIZNING MANZIL:

100031, Toshkent shahri,
Yakkasariy tumani,
Yusuf Xos Hojib ko‘chasi,
103-uy.

NASHR UCHUN MAS‘UL

Durdona Ubaydullayeva

Gazeta 2018-yil 4-dekabrda O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 1002-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Nashr indeksi: 145
Ofset usulida bosildi.
Qog‘oz bichimi A-3

Bosishga topshirish vaqti:
18:00
Bosishga topshirildi: 21:25
Adadi: 200
Bahosi kelishgan narxda.

SAHIFALOVCHI:

Jurobek XIDIROV

Gazeta tahririyat kompyuterida terildi va sahifalandi.

"Niso nashriyot va matbaa uyi" mchj bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Toshkent viloyati,
O‘rta Chirchiq tumani,
Mash‘al mahallasi,
Markaziy ko‘cha, 1-uy.

Buyurtma: 52
Hajmi 1 bosma taboq.